

O‘zbekiston Respublikasida Yoshlarni Konstitutsiyaviy Huquqiy Savodxonligini Oshirish Demokratik Davlat Barpo Etishning Kafolatidir

Subanov Olimjon Suyarkul o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish Instituti Yuridik fanlar kafedrası
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni konstitutsiyaviy huquqiy savodxonligini oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, yo‘l xaritasi, huquqiy savodxonlik, davlat organlari, huquqiy tarbiya.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy ma‘rifiy tadbirlar va uchrashuvlarni kengaytirish, xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini yosh avlod ongida shakllantirish orqali vatanparvarlik hissini kuchaytirish kabi dolzarb vazifalar turgan bir paytda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli Farmonining qabul qilinishi ayni muddaodir.

Mazkur Farmonda inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda eng avvalo, huquqiy ta‘lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayotganligi, uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta‘minlanmaganligini, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks tarzda yondashilmaganligi hamda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta‘minlashga o‘zining jiddiy salbiy ta‘sirini ko‘rsatayotganligi aytib o‘tilgan. Shu o‘rinda huquqiy ong va huquqiy madaniyat o‘zi nima degan savolga oydinlik kiritib o‘tamiz.

Huquqiy ong – qisqacha qilib aytganda huquq va qonunchilikka oid odamlarning tasavvurlari, ularning his-tuyg‘ulari, amaliy tajribalar ta‘sirida paydo bo‘lgan huquqqa nisbatan munosabatini ifodalaydi.

Huquqiy madaniyat esa – fuqarolarning davlat va huquq haqidagi muhim bilimlar egallab olishi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar haqidagi tushunchalarini talqin qila olishi hamda ulardan to‘g‘ri foydalana olishidir.

Bugungi kunda yurtimizda barcha jabhalarda tub o‘zgarishlar yuz berayotgan mas‘uliyatli pallada huquqiy tarbiyaning barcha shakl va usullaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini yodimizdan chiqarmasligimiz lozim. Shu sababli huquqiy madaniyatimiz darajasiga tanqidiy baho

berib, muammolarimiz sababini chuqur o'rganishimiz kerak. Biroq faqatgina qonunlarni o'rgatish va javobgarlik bilan qo'rqitish orqali qonun ustuvorligiga va taraqqiyotga erisha olmaymiz. Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanmayotganligimiz yuqoridagi fikrlarimiz isbotidir. Farmon asosida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida Adliya vazirligi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi davlat organi etib belgilangan.

Bundan tashqari, aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'layotganligini inobatga olib, tegishli davlat organlariga aniq vazifalar yuklatilgan. Shuningdek, farmon bilan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish" konsepsiyasi qabul qilinib, uning asosiy vazifa va maqsadlari, asosiy yo'nalishlari ko'rsatilgan va Konsepsiyani samarali amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan. "Yo'l xaritasi"ga 88 ta band kiritilgan bo'lib, barcha sohalarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan hamda jamiyatdahuquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish "shaxs - oila - mahalla - ta'lim muassasasi - tashkilot - jamiyat" prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etilishi nazarda tutilgan. Islohotlar ijrosini ta'minlash borasida ta'lim muassasalarida bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, ta'lim muassasalari o'quvchilarining yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun va mohiyatini tushintirish maqsadida boy amaliy tajribaga ega huquqshunos olimlar va professorlar taklif qilingan holda seminar uchrashuvlar tashkil qilinib, o'quvchilarning huquqiy bilimlari oshirilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad mamlakatimizda olib borilayotgan sud-huquq islohotlari jarayonida yoshlarning ishtirokini yanada faollashtirish, yosh avlod vakillarini qonunga hurmat ruhida tarbiyalash, turli zararli illat va yod g'oyalar ta'siridan himoyalash, yoshlarning huquqiy ongi va madaniyati, bilimlari va mas'uliyatini muntazam oshirish hamda viloyatning tuman (shahar)larida, ayniqsa chekka hududlarida istiqomat qiladigan ko'p sonli uyushmagan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishdan iboratdir.

Ta'lim dargohlarida yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazish bilan bir qatorda, o'quvchilarni tuman Adliya bo'lim, sud idoralari va ichki ishlar bo'limlariga olib borgan holda, ularni sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardor qilib, qonunlarga kiritilayotgan o'zgartirish va yangiliklar haqida, shuningdek yoshlarning huquqiy ong va madaniyatini oshirish borasida keng tushunchalar berib borilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu ko'zda tutilgan maqsadli ishlarni amalda ijro etilishi uchun har birimiz mas'ul ekanligimizni his qilishimiz, shundagina fuqarolar, ayniqsa O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlar, shu jumladan ichki ishlar organlarining bo'lajak xodimlari o'rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyat yuksalib boradi va buning natijasida esa qonunlari ustuvor bo'lgan davlatning rivojlanishiga erishiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev o'zlarini ma'ruzalarida, davlat organlari rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuv va muloqotlarda asosan jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biridir deb bejizga ta'kidlamagan. Haqiqatdan ham jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodhonligi darajasi talab darajasiga ko'tarilmaganligi, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayotganligi, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlashg'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi va boshqa qator muammolar qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirinri ko'rsatib

kelayotganligi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirishga turtki bo'ldi.

Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-yanvar 2019 yildagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF- 5618-sonli Farmoni qabul qilingan bo'lib, mazkur Farmon endilikda aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabulqilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish-demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!"-degan hayotiy g'oyani mustahkamlashga, yosh avlodni ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jixatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatishga undamoqda.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish "shahs-oilamahalla-ta'lim muassasasi-tashkilot-jamiyat" prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etilishi belgilanmoqda hamda bu borada huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi mazkur Farmonning 1-ilovasi sifatida, shuningdek, 2019 yilga mo'ljallangan "Yul xaritasi" 2-ilovaga muvofiq tasdiqlandi hamda mazkur Konsepsiyaning asosiy maqsadi aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishi, mustaxkam irodali, o'z huquqlarini biladigan va qonunlarni hurmat qiladigan, huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan va huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo'ladigan fuqarolarni tarbiyalashning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdan iboratdir.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga munosib xissa qo'shgan davlat organlari va tashkilotlari hodimlariga huquqiy savodxonligini oshirishda ko'rsatgan xizmatlari uchun topshiriladigan "Huquqiy targ'ibot ishlari a'lochisi" ko'krak nishonini ta'sis etilishi to'g'risidagi taklif ham ma'qullandi.

Bir so'z bilan aytganda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ xujjatlarni mazmun-mohiyatini aholiga o'z vaqtida va sifatli yetkazishni targ'ib qilishda barcha mansabdor shahslar eng avvalo mas'ul ekanliklari barobarida yakunda o'z mehnatlari samarasi uchun hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlanadilar.

Bu borada endilikda targ'ibot ishlarini yuzaki, ko'zbo'yamachilik bilanemas balki innovatsion rivojlanish davrida bo'lganimiz uchun targ'ibotni turli hil tadbirlar ko'rinishida ishtirokchilarni rag'batlantirish, turli hil nominatsiyalar asosida mukofotlash, axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida, o'zlarining (talim muassasasining) veb-saytlari orqali va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib qilishliklari talab etiladi.

Muxtasar qilib aytganda, mamlakatda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, asosiy e'tiborni esa o'sib kelayotgan yosh avlodga qaratish, ularni huquqiy bilimi va savodxonligini, ayniqsa yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyadagi kiritilgan yangi modda va normalarning mohiyati bilan tanishtirish, ushbu modda va normalarning mazmunini oddiy vasodda tilda yoshlarga tushintirish orqali mamlakatimizda qonun ustuvorligiga, Bosh Qomusimizda belgilangan O'zbekistonda huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat barpo etishdek buyuk strategik maqsadga erishishimiz uchun zamin bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi.